



XALQ DEPUTATLARI CHIROQCHI TUMAN KENGASHI Q A R O R I

2022 - yil 1 - iyul

VI-61-69-4-66-K/22

Chiroqchi tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Geografik obyektlar nomlarini davlat reyestriga kiritish hamda tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktabrdagi “Geografik obyektlarni nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq Geografik obyektlarning nomlanishini tartibga solish chora-tadbirlari yuzasidan qabul qilingan 295-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda 2021 yil 29 maydagi 29-sonli yig‘ilish bayoniga ko‘ra, Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanida mavjud 186 ta aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari (ko‘chalar, dahalar, nohiya va boshqa) nomlaridan hududdagi 2162 ta nomlanmagan ko‘chalar mavjud bo‘lib, shundan 14 ta ko‘chalar Geografik obyektlarning nomlari davlat reyestri ma’lumotlar bazasiga mavjud bo‘lib, shundan 2021 yil 15 sentyabr holatiga 1278 ta nomlanmagan ko‘chalar nomlanib, mahalliy Kengash sessiya qarori bilan tasdiqlangan, 294 ta nomlanmagan ko‘chalar nomlanmaganligi sababli davlat reyestriga kiritilmagan sababli, nomlash taklifi berilgan.

Xalq deputatlari Chiroqchi tumani Kengashining 2022 yil yanvardagi “Chiroqchi tumani geografik obektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish to‘g‘risidagi” 63-sonli sessiya qarori bilan tumandagi ayrim aholi punktlari tegishli qaror qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 19 oktabrdagi 02-14-747-sonli “Georafik obektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli Qonunining 16–moddasiga muvofiq, Chiroqchi tumanida mavjud bo‘lgan 294 ta nomlangan ko‘chalar va bitta nomlanmagan Istirohat bog‘i nomini “Shomurod baxshi” nomi bilan davlat reyestriga kiritish.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Chiroqchi tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktabrdagi “Geografik obyektlarni nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq Geografik obyektlarning nomlanishini tartibga solish chora-tadbirlari yuzasidan qabul qilingan 295-sonli Qonuni ijro uchun qabul qilinsin.

2. Chiroqchi tumani mahalla fuqarolar yig‘inlaridan kelib tushgan iltimosnomalar, tuman hokimligi huzuridagi “Geografik obyektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi” tuman komissiyasining 2021 yil 15 sentabrdagi 11/2641-sonli yig‘ilish bayoni, O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasining 2021 yil 19 oktabrdagi 02-14-747-sonli ekspertiza

hulosasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Chiroqchi tumanidagi 86 ta mahalla fuqarolar yig'inlaridagi ko'chalarni nomlash va qayta nomlash ro'yxati bilan va "Chiroqchi" mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan bitta nomlanmagan Istirohat bog'i nomini "Shomurod baxshi" nomi bilan nomlash 1-va 2- ilovalarga asosan tasdiqlansin.

4. Chiroqchi tumani Davlat soliq inspeksiyasi (B.Usmonov), Chiroqchi tumani Statistika bo'limi boshlig'i (N.Nazarov), Chiroqchi tumani Davlat xizmatlari markazi boshlig'i (B.Tog'ayev), tuman hokimligi moliya bo'limi (SH.Maxmatqulov), Chiroqchi tumani Ichki ishlar bo'limi (A.Beshimqulov), Chiroqchi tumani "Yermulkkadastr" Davlat korxonasi (Z.Safarov) va tegishli mutasaddi tashkilot rahbarlariga:

- Tumandagi 86 ta mahalla fuqarolar yig'inidagi ko'chalar nomini qaytadan nomlash hamda tuman ichki ishlar pasport bo'linmasi tomonidan fuqarolarni ro'yxatga olish va ro'yxatdan chiqarish masalalarida alohida e'tibor qaratsinlar.

- Mazkur qaror asosida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni e'tiborga olsinlar va mazkur qarordan kelib chiqqan holda tegishli idoraviy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman hokimining o'rinbosarlari (B.Norqobilov, B.Xolyorov), tuman hokimligi moliya bo'limi mudiri (SH.Maxmatqulov)larga:

- bir hafta muddatda hududlarda nomlari o'zgargan geografik obyektlarning nomini aholi o'rtasida keng targ'ib etish, belgilangan tartibda zamonaviy ko'rinishdagi (lotin yozuvida) peshlavxalarga yozib o'rnatish choralari ko'rish;

- peshlavxalar o'rnatish va moliyalashtirish yuzasidan tegishli tashkilotlarga ko'rsatmalar berish va nazoratga olish;

- bir hafta muddatda hududlarda nomlari qayta nomlangan geografik obyektlarning nomlarini aholi o'rtasida keng targ'ib etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilansin.

6. Tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i, (A.Beshimqulov)ga:

- fuqarolarning horijga chiqish, kirish uchun hujjatlarini rasmiylashtirishda hududlarda geografik obyektlarning nomlari qayta nomlanganligiga alohida e'tibor qaratish;

- fuqarolarning shaxsini tasdiqlovchi pasportlariga nomlari qayta nomlangan geografik obyekt nomlari bilan yozilishini doimiy nazoratga olish vazifalari yuklatilsin.

7. "Chiroqchi" gazetasi (H.Egamberdiyev) tahririyati hamda tuman hokimligi axborot xizmati (S.Rayimkulov)ga hududlarda nomlari qayta nomlangan geografik obyektlarning yangi nomlarini bosma ommaviy axborot vositasi va tuman hokimligi rasmiy veb-sayti orqali yoritish ta'minlansin.

8. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy-madaniy sohalani rivojlantirish, oila, xotin-qizlar va yoshlar masalalari bo'yicha doimiy komissiya raisi F.Shomurodov hamda tuman hokimining o'rinbosari B.Xolyorov zimmlariga yuklatilsin.

9. Mazkur sessiya qarori va qayta nomlangan geografik obyektlar bo'yicha hujjatlar Qashqadaryo viloyati hokimligiga taqdim etilsin.

10. Mazkur qaror rasmiy nashrlarda e'lon qilingan kundan boshlab qonuniy kuchga kiradi.

Sessiya raisi



F.Bobotov